



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Mamatraimov O‘ktam Choriyevich

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tuman MTBga qarashli 8-sonli

AFCHO‘SMUO‘TM psixologi

Annotatsiya: *O‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sifatida mavjud. Chunki inson faqat ta’lim tarbiya tufayligini hayotini davom ettira va rivojlantira oladi. Tamaddunning Ossuriya, Bobil, Misr, Turkiston, Hindiston, Xitoy singari qadimiy o‘choqlarida topilgan tarixiy madaniy obidalar bu o‘lkalarda o‘qituvchilik kasbi juda qadim zamonlarda shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu davrlarda eng oqil, tajribali kishilar o‘qituvchilik bilan shug‘ullanishgan va ular boshqalarga qaraganda katta imtiyozlarga ega bo‘lishgan*

Kalit so‘zlar: *Bo‘lg‘usi pedagog kadrlar, pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyat maqsadi, bo‘ekti va vositasi, kasbiy bilim, pedagogik texnika, pedagogik vaziyat, ruhiy holat, tushkunlik, psixik jarayonlar, muloqot*

KIRISH

Jaloliddin Rumiyning ustoz sifatidagi faoliyati bilan bog‘liq yuqorida keltirilgan misol ustoz – murabbiyning jazavaga tushish, baqirish bilan emas, balki o‘zini tutish, og‘ir – vazmiylik, kamtarlik va samimiyat, qat’iyat bilan bergan javobi, tolibning hatosini darhol tushunib etishi va qilmishidan qattiq hijolat bo‘lishiga va majlisni tashlab chiqib kelishgan sabab bo‘ladi. Ilm tolibining bu tutgan yo‘li uning yuksak darajasidagi ongliligini belgilamasada, shu hatti – harakatning o‘ziyoq pedagogik faoliyat maqsadiga tamon birgalikda qo‘yilgan qadamdir. Binobarin, pedagogik faoliyat maqsadining o‘ziga hosligi shundaki, u




o'qituvchining ham, o'quvchining ham maqsadi bo'lishi kerak. Metafaoliyatning mohiyati ana shunda.

1. Boshqa kishi faoliyatni boshqarish shuning uchun ham murakkabki, o'qituvchining maqsadi tarbiyalanuvchining kelajagiga qaratilgan bo'ladi. Bu maqsad o'qituvchi uchun yaqin va tushunarlidir. U "Sen bilishing, bajara olishing va bajarishing kerak", - deya talab qiladi. O'quvchi esa bugungi kunning quvonchiyu tashvishlari bilan yashaydi, kelajak uning uchun juda yiroq. SH.A.Amonashvilli bu ziddiyatga "tarbiya fojiasining asosi" deb baho beradi. O'qituvchi ayni zamonda yashab turib kelajakni barpo etadi. Bu juda murakkab vazifa.

Buni chuqur anglagan usta-pedagoglar har doim o'z faoliyati logikasi o'quvchi ehtiyojlariga tayanib quradilar. Masalan, SH.A.Amonashvilli o'z faoliyat dasturini bola dasturiga yaqinlashtirishga intilgan. E.N.Ilina esa doimiy matnlardan foydalanib, sinfdagi vaziyatga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi.

O'qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o'z ixtisosligi bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir.

O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o'qituvchining pedagogik mahoratida "Bilish, tushunish, o'ylash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e'tirof etilgan. Shaxsga ta'lim-tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi.



Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchi ta'limni qanday tashkil etishi zarur?

Avvalo u o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashhulotlarini mazmunan yaxlitligini ta'minlashi.

Pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashhulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi.

Ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi.

Ta'lim beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi.



Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda jaryonning rivojlangan mamlakatlarida pedagogika va psixologiya sohasida erishilayotgan ilg'or tajribalarni amalda modernizatsiya qilgan holda qo'llashi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ma'naviy meroslaridan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda foydalana olishi.

Darsning barcha turlarida, mashg'ulotlarda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodlaridan foydalanishi.

O'qitadigan fan turkumi bo'yicha avtomatlashtirilgan ta'lim tizimi uchun amaliy dasturlar paketini yaratishi lozim.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogikpsixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishi uchun, unda quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak (so'z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifa, burch va mas'uliyatlarni ifodalaydi):

O'qituvchi jamiyat ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi shart.

O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'limtarbiyaviy faoliyatda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'z faoliyati tashkil etishi kerak.

O'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va axborot texnologiyalarining eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.



O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi davr talabidir.

O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

Inson tarbiyasi har qachon ham murakkab vazifalardan biri bo'lib kelgan. Hatto jamiyat me'yordagi stabil rivojlanish bosqichida turgan vaqtda ham o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida turli muammolar paydo bo'ladi. Bugungi kun muammolari esa (ishsizlik, qonunbuzurlik, oilaviy ajrashishlar, noqonuniy dori vositalari va hatto giyohvand moddalardan foydalanish, shahsiy va profesional maqsadning yo'qligi, diniy ekstremizm, terrorchilik va h.o) ta'lim-tarbiya jarayonini yanada murakkablashtirib yubormoqda.

Ma'lumki, ta'lim–tarbiya deb atalgan murakkab jarayon sub'ektlaridan biri – bu o'qituvchi. Ho'sh, bugungi kun o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak? Uning faoliyati maqsadi va vazifalari nimalardan iborat? Uning bilim saviyasi, salohiyati, mahorati va qobiliyatini o'stirish nimalarga bog'liq?

Eng avvalo o'qituvchi shuni chuqur anglashi lozimki, u jamiyatning ishonchli vakili, zero, jamiyat unga o'zining eng qimmatli boyligi, umidi, ishonchi va kelajagi bo'lgan bolalarini topshiradi. Bu oliyjanob va murakkab kasb unga hayotini bag'ishlagan har bir kishidan doimiy ijod, izlanish, ulkan sahovatli qalb, bolalarga muhabbat, o'z kasbiga cheksiz sadoqatni talab etadi. Bunday mas'uliyatli vazifani faqatgina dialektik fikrlash qobiliyatiga, yorqin shahsiy sifatlarga ega bo'lgan, o'z–o'zini uzluksiz rivojlantirish va tarbiyalashga tayyor bo'lgan o'qituvchi bajara oladi. Zero, o'qituvchi shahsi pedagogik jarayon muvaffaqiyatining asosiy sharti va vositasidir.

Har qanday faoliyatda bo'lgani singari, pedagogik faoliyatning ham bir nechta tarkibiy qismlari mavjud. Bular: maqsad, vosita, ob'ekt, sub'ekt. Avvalo, pedagogik faoliyat maqsadi o'ziga hosligi bilan ajralib turadi. Bular quyidagilar:



2. O'qituvchilik ishi maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni o'qituvchi o'z mehnati yakuniy natijalarini tanlashda erkin emas, uning hatti-harakatlari har tomonlama barkamol shahsni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Pedagogik faoliyat avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy vorisiylikni amalga oshirish, yoshlarni mavjud ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq insoniyat ijtimoiy tajribasini egalashdagi tabiiy imkoniyatlarini yuzaga chiqari uchun xizmat qiladi.

Ammo maqsaddan kelib chiqadigan muayyan vazifalarni sharoitga mos ravishda o'qituvchining o'zi belgilashi kerak. Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadi yakuniy natijasiga ko'ra jamiyat tomonidan belgilanadigan aniq ijtimoiy buyurtma bo'lib, uning vazifalari muayyan pedagogik vaziyatlarda turlicha belgilanadi. Ana shu holatning o'ziyoq o'qituvchidan ijodiy yondoshuvni, maqsadni ko'ra olish, uni muayyan sharoit bilan taqqoslay olishni talab etadi.

3. O'qituvchi faoliyati har doim boshqa faoliyat orqali boshqariladiga faoliyatdir. Bu o'ziga hos meta-faoliyat bo'lib, o'quvchilarning faoliyatiga mos etib quriladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchi pedagogik-psixologik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarni tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni o'z iroda kuchi bilan bartaraf etishning uddasidan chiqqan olishi zarur. O'qituvchi o'quvchilar, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiqdir. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchining muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi, u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.



O'qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar orasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi. Demak, pedagogik faoliyat maqsadi o'qituvchidan jamiyatning ijtimoiy topshirig'iga nisbatan shahsan qabul qilish; muayyan hatti-haraktlarning maqsad va vazifasiga ijodiy yondoshish; o'quvchi qiziqishlarini hisobga olish va uni o'quv faoliyati maqsadi sifatida takomillashtira olishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Najmiddinova G.N. Pedagogik mahorat kursining texnologiyalashtirilgan ma'ruza matnlari. -T.: TDPU, 2019.
2. Холиқов А. Педагогик маҳорат. -Т.: 2010.
3. Турғунов С.Т., Мақсудова Л.А. Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш. – Т.: “Фан”, 2009. – 168 б.
4. Ziyo.net